# GENDER TENGLIK BO`YICHA AYOLLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BO'YICHA HUQUQIY VA PSIXOLOGIK MASLAHATLAR TASHKIL ETISH

**Tursunova Dilbar Zafarovna, JDPI 2 bosqich magistri**

**Annotatsiya :**Mazkur maqola Gender tenglik masalalari bo`yicha BMT bosh Assambleyasi Butunjahon deklaratsiyasi, O`zbekiston Respublikasining qonuni Xotin –qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to`g`risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma'qullangan,Qonuni asosida gender tenglik masalalariga e`tibor qaratilgan.Maktab psixologlari tomonidan 27- noyabr dan 10- dekabrgacha 16- kunlik aksiyasining o`tkazilishdan maqsado`quvchilarni ongiga gender tenglik masalalari singdirilganligi bayon etilgan.

**Kalit so`zi** :Gender tenglik,BMT, qonunlar, Oliy majlis,senat raisi, Xotin qizlar huquqlari,16 kun aksiya teng huquqlik, psixolog,Milliy Nass-Mediya, Zo`ravonlik.

Ushbu maqola gender tenglik bo`yicha olib boriladigan ishlar va qonunlar to`g`risida amalga oshiriladigan har qanday huquqiy va Psixologik maslahatlar o`z o`rnida to`g`ri tashkil qilinmoqda. Shu jumladan :BMT bosh Assambleyasining 1967- yil 7- noyabrda qabul qilingan Ayollarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish. Butunjahon deklaratsiyasining 1-moddasida "Ayollarga nisbatan kamsitish, ularning erkaklar bilan teng huquqliligini rad etish yoki cheklashga olib keladigan holatlar qayd etilsa o'z mohiyatiga ko'ra adolatsizlik bo'lib, inson qadr-qimmatiga qarshi jinoyat sodir etilgan hisoblanadi",deb ta'kidlangan. So'nggi yillarda mamlakatimizda qabul qilingan qator huquqiy asoslar, ayniqsa, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish to'g'risida" va "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilinishi tufayli gender tenglikka xilof bo'lgan barcha cheklovlar, xatti-harakatlarga chek qo'yilishi ko'zda tutildi. O`zbekiston Respublikasining qonuni Xotin –qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to`g`risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustdama'qullangan.

Bu qonun 7 bob va 32 moddadan iborat.Ushbu Qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishga doir choralarni qo'llash asoslari: Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish hamda xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha bosqichlarida ishtirok etishlarini ta'minlash O'zbekistonda xotin-qizlarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish, ularning teng huquqli ekanligini ta'minlash ustuvor vazifalaridan sanaladi. Bosh qomusimizda ayollar va erkaklarning teng huquqliligi haqida alohida modda kiritilgan bo'lib, unga ko'ra, xotin-qizlarga ta'lim olish, kasbiy tayyorlanish, ish, mehnat uchun rag'batlanish va xizmat yuzasidan ko'tarilishida teng huquqiy imkoniyatlar yaratilishi ta'kidlanadi.

Jumladan, jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida erkaklar va ayollarning huquqlari hamda erkinliklarini kamaytirishga yoki tan olmaslikka qaratilgan har qanday tarzda farqlash, istisno etish yoki cheklash jinsi bo‘yicha bevosita kamsitish, sirtdan xolis bo‘lib tuyuladigan, biroq bir jinsdagi shaxslarni boshqa jinsdagi shaxslarga nisbatan noqulayroq holatga tushirib qo‘yadigan vaziyatlar, holatlar, mezonlar yoki amaliyotlar esa jinsi bo‘yicha bilvosita kamsitish sifatida qabul qilinishi belgilab qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga ko‘ra, quyidagilar jinsi bo‘yicha kamsitish hisoblanmaydi: ayollar uchun homiladorlik, tug‘ish va ko‘krak suti bilan boqish davrida maxsus shart-sharoitlar yaratish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdagi farqlarni belgilash; O‘zbekiston qonunchiligida belgilangan tartibga ko‘ra harbiy xizmatga faqat erkaklarni chaqirish; erkaklar va ayollar reproduktiv salomatligini asrash bilan bog‘liq mehnat muhofazasini o‘ziga xos xususiyatlari; erkaklar va ayollarning pensiya yoshidagi tafovutlar; qonunchilik asosida jamiyatning barcha jabhalarida erkaklar va ayollarning tengligini ta’minlashga qaratilgan vaqtinchalik maxsus chora-tadbirlarni belgilash; qamoqda saqlash, jazoni ijro etish joylarida saqlash tartibi va shartlarini hamda jinoiy-huquqiy ta’sir ko‘rsatadigan boshqa choralarni tartibga solishdagi farqlarni belgilash. Shu bilan birga, mamlakatimizda jamiyat va davlat ishlarini boshqarish, saylov jarayoni, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ilm-fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya, shuningdek, davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida ayollar va erkaklarning teng ishtiroki kafolatlanadi. Jumladan, oilaviy munosabatlar sohasidagi erkaklar va ayollar huquqlarining tengligi: erkaklar va ayollar nikohining ixtiyoriyligiga; majburiy va erta nikohlarga yo‘l qo‘ymaslikka; er-xotinlarning shaxsiy va mulkiy huquqlari tengligiga; oila ichidagi nizolarni o‘zaro kelishuv bo‘yicha hal qilishga; uydagi mehnat xususida erkaklar va ayollar huquqlari va majburiyatlarining tengligiga; voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining huquqlari va manfaatlari himoyasini, onalik, otalik va bolalik himoyasini ta’minlashda teng ishtirok etishga asoslangan. Mehnat munosabatlarida erkaklar va ayollarning teng huquqlari hamda imkoniyatlarini ta’minlash maqsadida ish beruvchi quyidagilarni: ishga yollashda, bo‘sh ish o‘rinlarini egallashda erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlarni; teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va ayollarga teng ish haqini (mukofotni); malaka oshirish, qayta tayyorlash va xizmatda ko‘tarilish uchun teng imkoniyatlarni; korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tugatilganda yoki qayta tashkil etilganda xodimlarni ishdan bo‘shatishda erkaklar va ayollar huquqlarining tengligini; farzandlari bor erkaklar va ayollar uchun qulay bo‘lgan oilani qo‘llabquvvatlash bo‘yicha amaliyotni joriy etish va rivojlantirish, homilador va emizikli ayollar uchun qulay shart-sharoit yaratishni; erkaklar va ayollarning hayoti va faoliyati hamda salomatligini saqlashni ta’minlaydigan xavfsiz mehnat sharoitlarini; erkaklar va ayollarga tenglik asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish imkonini beradigan ish sharoitini yaratishni; erkaklar va ayollar uchun mehnat faoliyatini oilaviy majburiyatlar bilan birga bajarish imkoniyatini yaratishni ta’minlaydi. Shunday qilib, yuqorida keltirilganlarning barchasi xotin-qizlarning hayotimizning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jabhalarida har tomonlama to‘laqonli ishtirok etishlarini

hamda qaror qabul qilishda yetakchilik qilishlari uchun teng shartsharoitlar yaratish imkoniyatlarni ta’minlaydi. 2019 yil 22- oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunimiz mazmun mohiyatini tizim xodimlariga kengroq tushintirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligida “Ayollar huquqlari qonun himoyasida” nomli davra suhbati o‘tkazildi.Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi axborottexnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Xotin qizlar qo‘mitasining mas’ul xodimlari ishtirok etdi.

Yurtimizda xotin-qizlarning haq-huquqlarini, qonuniy manfaatlarini ta’minlash, qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, bir so‘z bilan aytganda, opa-singillarimizni jamiyatning teng huquqli, faol va bunyodkor a’zosiga aylantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayollar muammolarini bartaraf etishga, ularning haq- huquqlarini himoya qilish, oila va jamiyatdagi nufuzini oshirishda respublikamizdagi mavjud barcha vazirlik va idoralar keng jalb qilinayapti, bugun ayollar masalalariga barcha tashkilotlar va ularning rahbarlari boshqacha ko‘z bilan, ya’ni ijobiy va jiddiy qarashmoqda. Bunday yondashuv amaliy va samarali natijalarni bermoqda, xotin-qizlarning yaxshi yashashi, mehnat qilishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda.Barqaror taraqqiyot maqsadlari hozirgi kungacha erishilgan yutuqlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, butun jahonda ayol va qizlarga qarshi kamsitishlarni butunlay yo‘q qilishni ko‘zda tutadi. Hozirgi kunda ba’zi hududlarda sezilarli darajadagi gender tengsizlik saqlanib qolmoqda, xususan bunday tengsizlik haq to‘lanadigan ish o‘rinlarini egallash hamda mehnat bozorida yaqqol kuzatilmoqda. Jinsiy zo‘ravonlik xavfi, bepul parvarishlanish imkoniyatining cheklanganligi va uy-ro‘zg‘or tashvishlari hamda davlat boshqaruvi sohalarida mavjud bo‘lgan kamsitishlar xotin-qizlarning rivojlanishi yo‘lida hanuz katta to‘siqlarni tug‘dirib kelmoqda.



Har bir inson jinsiy va reproduktiv salomatligini yaxshilash bo‘yicha xizmatlardan foydalanish imkoniyatining ta’minlanishi, qolaversa barcha ayollar yer resurslari va mulk kabi iqtisodiy ne’matlardan erkaklar bilan teng ravishda foydalanish huquqi va imkoniyatini ta’minlash mazkur maqsadga erishishning eng asosiy shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Hozirda boshqaruv lavozimlarni egallayotgan ayollar soni ilgarigiga nisbatan ancha ko‘p, biroq davlat siyosati va qonunchiligida gender tengligi konsepsiyasi o‘z aksini toptirish uchun dunyoning barcha hududlarida yetakchi ayollarni, ularning faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlashimiz zarurdir.




O`zbekiston Respublikasida ham yetakchi boshqaruv lavozimlarida ayollar faoliyat yuritib kelmoqda.Shu jumladan Oliy Majlis Senati raisi (O`zbekiston Respublikasi Xotin qizlar  masalalari bo`yicha raisi)Tanzila Norboyevahamda Saida Mirziyoyeva  O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo‘yicha bo`lim boshlig`i  Milliy Nass –Mediyani qo`llab quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi rais o`rin bosari.

Ayollarda tazyiq va zo`ravonlikni oldini olish bo`yicha har bir oila bir mamlakat,bir saltanatdir.Erkak bu saltanatning  qiroli,shoxi bo`lsa Ayol qirolichasi, malikasidir.Qirolichasi,malikasi ko`z yosh to`kkan,ho`rlangan kamsitilgan zo`rlangan xolda bo`lsa bunday mamlakat ildizi yildan yilga chirib boraveradi. Ildizi chirigan daraxtning mevasi ham achinarli xolda bo`lishligi ma`lumdir. 25–noyabr Xalqaro ayollarga nisbatan zo`ravonlikka qarshi kurashish kunidir.

Xalqaro darajadagi 16 –kunlik global kompaniya tadbirlari 1991 yildan boshlangan .

“Xotin -qizlarga nisbatan zo`ravonlikka qarshi 16- kun” kompaniyasi doirasiga  telegram, yutub, instagram,ijtimoiy tarmoqlarimizda ayollarimizning

ruxiy salomatligiga shaxsiy o`sishlariga oilalarning o`zaro sevgi va samimiyat bilan mustahkamlanishiga doir vedyolar jonli efirlar o`tkazib borildi. Maktablarda o`tkazilgan "Biz zo`ravonlikka qarshimiz" aksiyasi ham respublika maktab psixologlari tomonidan amlga oshirildi. Ushbu tadbirlar materiallar O`zbekiston Gender komissiyasi, Mahalla va oilani qo`llab – quvvatlash vazirligi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining "Davlat boshqaruvida va ijtimoiy siyosiy hayotida ayollarni qo`llab quvvatlash" qo`shma loyihasi doirasida tayyorlab boriladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


Rasulova, D. (2020). QIZLARNI SOG'LOM TURMUSH TARZI ASOSIDA TARBIYALASHNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI.

Uktamovich, R. B., & Rakhmatullaevna, R. D. (2019). FEATURES OF STUDYING THE LEVEL OF PSYCHOLOGICAL READINESS OF A SEVEN-YEAR-OLD CHILD'S ADAPTATION TO SCHOOL. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

Davurova, G. (2020). Yosh ota-onalarining pedagogik-psixologik bilimlarini oshirishning ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI.

Расулова, Д. (2020). Психологическая диагностика личностных и эмоциональных аспектов суицидального поведения подростка. Архив Научных Публикаций JSPI.

Каршибаева, Г. А., Расулов, Б. У., Расулова, Д. Р., & Эшмуратов, О. Э. (2018). Психологическая диагностика личностных и эмоциональных аспектов суицидального поведения подростка. Образование и воспитание, (2), 72-73.

Rasulova, D. (2020). САМАРАЛИ ТАЪЛИМ-ИЖОДИЙ ЁНДАШУВ МАҲСУЛИ. Архив Научных Публикаций JSPI.

Davurova, G. (2020). Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.

Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Архив Научных Публикаций JSPI.

Davurova, G. (2020). Komil inson masalasining psixologiyada tadqiq etilishi. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rasulova, D. (2020). YOSH OTA-ONALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI.

Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR

VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).

Xamrayeva, N. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ. Архив Научных Публикаций JSPI.

Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).

Qayumov, A. (2020). SYSTEM-TECHNOLOGICAL APPROACH TO SPIRITUAL AND AESTHETIC EDUCATION IN THE STUDY OF PEDAGOGICAL DISCIPLINES. Архив Научных Публикаций JSPI.

Qayumov, A. (2020). ДУХОВНО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. Архив Научных Публикаций JSPI.

Toshnazarova, U. (2021). Мулоқот маданиятининг ривожланиши психологик омиллари. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).

Toshnazarova, U. (2020). Communicative culture of socio-psychological support of professional development of higher edication students. Архив Научных Публикаций JSPI.

Toshnazarova, U. (2020). Социально-психологические аспекты общения и коммуникативной културы. Архив Научных Публикаций JSPI.

Davurova, G. (2021). OILAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).

Davurova, G. (2021). TALABA–QIZLARDA TAZYIQ VA TAJOVUZGA QARSHI DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ASOSLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).

Uktamova, U., & Berdiyorova, S. (2020). THE ROLE OF COMMUNICATION IN PEOPLE'S RELATIONSHIPS AND WAYS OF LEARNING TO COMMUNICATE. Архив Научных Публикаций JSPI.

Uktamova, U. (2020). KICHIK MAKTAB YOSHIDA QOBILIYATNING PSIXOLOGIK TAVSIFI. Архив Научных Публикаций JSPI.

Uktamova, U. (2020). Ў?увчиларга маънавий-ахло?ий тарбия бериш ор?али экологик маданиятини шакллантириш. Архив Научных Публикаций JSPI.

Berdiyorova, S., & Uktamova, U. (2020). РОЛЬ ОБЩЕНИЯ ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ ЛЮДЕЙ И СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ К ОБЩЕНИЮ. Архив Научных Публикаций JSPI.

Uktamova, U. (2020). АГРЕССИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ НА РАЗВИТИЕ ВЗГЛЯДОВ ДЕВУШЕК. EurasianUnionScientists, 1(10 (79)), 45-47.

Uktamova, U. (2020). ОИЛАВИЙ ЗЎРАВОНЛИКНИНГ КЕЛИБ ЧИ?ИШ САБАБЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).

Сунатуллаевна УУ (2021 г., январь). ТАЛАБА КИЗЛАРДА ТАЗЫИК ВА ТАДЖОВУЗГА КАРШИ ДУНЁКАРАШНИ ШАКЛЛАНТИШ. В евро-азиатских конференциях (Том 1, № 1, стр. 504-508).

Уктамова, У. (2020). ЁШЛАР ФАОЛИЯТИНИ БУНЁДКОР ?ОЯЛАР БИЛАН БАНД ?ИЛИШ МУАММОСИ. Архив Научных Публикаций JSPI .

Maxamatova, F. (2020). Таълим-тарбия самарадорлигини оширишда ота-она ибрат намунаси. Архив Научных Публикаций JSPI.

Maxamatova, F. (2020). Педагогика фанини ў?итиш жараёнида муоммоли ў?итиш технологияларидан фойдаланиш. Архив Научных Публикаций JSPI.

Maxamatova, F. (2020). Оилада фарзанд маънавий тарбиясига ру?ий таъсирлар. Архив Научных Публикаций JSPI.

Maxamatova, F. (2020). Sog'lom oilaviy muhitni himoya qilishning qonuniy asoslari. Архив Научных Публикаций JSPI.

Maxamatova, F. (2020). Современные тенденции" учитель-ученик" в системе непрерывного образования: проблемы и решения. Архив Научных Публикаций JSPI.

Maxamatova, F. (2020). Развитие страхования в инновационной сфере. Архив Научных Публикаций JSPI.

Safaraliyevna, M. F. (2021). Pedagogical bases of formation of readiness of students to work. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 528-531.

Safaraliyevna, M. F. (2021, January). PEDAGOGICAL BASES OF INVOLVEMENT OF STUDENTS IN LABOR EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 290-296).

Safaraliyevna, M. F. (2021, January). PEDAGOGICAL BASES OF INVOLVEMENT OF STUDENTS IN LABOR EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 290-296).

Rahmatova, F. (2020). THE WAYS OF UTILIZING PROBLEMATIC STUDY IN ENHANCING THE MATHEMATICAL MINDOF THE UPCOMING PRIMARY EDUCATION TEACHERS. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2021). Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг математик тафаккурини ривожлантиришда интерфаол таълим методларидан фойдаланиш. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).

Rahmatova, F. (2020). METIIODS OF INNOVATION TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). Main Features of Mathematical Subjects at Primary Schools. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IMPROVING MATHEMATICAL THINKING. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). ТАЛАБАЛАРНИНГ МАТЕМАТИК ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ИМКОНИЯТЛАРИ. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ УМЕНИЙ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКИ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). Математика фанини ўқитишнинг дидактик таъминоти. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). Математик тафаккурни такомиллаштиришда матнли масалалардан фойдаланишда узлуксизлик тамойилининг аҳамияти. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). СОЗДАНИЕ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ ОБЛАСТИ ТВОРЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). Талабаларда математик тафаккурни шакллантириш омиллари. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-6.

Rahmatova, F. (2021). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish yunalishi bo'yicha faoliyat. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).

Rahmatova, F. (2021). O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).

Rahmatova, F. (2021). The Formation Of Research Competencies Of Future Primary School Teachers. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив№ 2).

Rahmatova, F., & Abrorxonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив№ 2).

Rahmatova, F. (2020). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ. Журнал инновации в начальном образовании.